

Oriental Journal of Education



PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR INTEGRATING ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE INTO PRIMARY EDUCATION

Dilafroz Abidovna Khudayberdiyeva

Associate Professor

Tashkent International University of Chemistry

Tashkent, Uzbekiston

E'zoza Abdumalikova

Master's Student, Tashkent International University of Chemistry

daxudayberdiyeva@gmail.com

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: primary education, foreign experience, pedagogical conditions, integration, competency-based approach, interactive methods, differentiated instruction, learning motivation, independent thinking, digital technologies, education quality, methodological model.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: The article examines the pedagogical conditions for integrating advanced foreign practices into primary education using a systemic approach. A methodological model based on competency-based, learner-centered and integrative approaches was developed and experimentally tested. The findings indicate that interactive methods, differentiated tasks and digital tools significantly improve students' engagement, motivation, independent thinking and academic achievement. The experimental group demonstrated higher growth dynamics compared to the control group. Statistical analysis confirmed the significance of the differences ($p < 0.05$). The study substantiates that adapting foreign educational practices to the national context ensures sustainable improvement in education quality.

ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIGA INTEGRATSIYA QILISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Dilafroz Abidovna Xudayberdiyeva

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti

Toshkent, O'zbekiston

E'zoza Abdumalikova

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistranti

daxudayberdiyeva@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: boshlangʻich taʼlim, xorijiy tajriba, pedagogik shart-sharoitlar, integratsiya, kompetensiyaviy yondashuv, interaktiv metodlar, differensial taʼlim, oʻquv motivatsiyasi, mustaqil fikrlash, raqamli texnologiyalar, taʼlim sifati, metodik model.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ilgʻor xorijiy tajribalarni boshlangʻich taʼlim jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik shart-sharoitlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda kompetensiyaviy, shaxsga yoʻnaltirilgan va integrativ yondashuvlar asosida metodik model ishlab chiqildi hamda tajribasinovalardan oʻtkazildi. Natijalar interaktiv metodlar, differensial topshiriqlar va raqamli vositalar oʻquvchilarning faolligi, motivatsiyasi, mustaqil fikrlashi hamda oʻzlashtirish darajasini oshirishini koʻrsatdi. Tajriba guruhida barcha koʻrsatkichlar nazorat guruhiga nisbatan yuqori oʻsish surʼatini namoyon etdi. Matematik-statistik tahlil farqlarning ishonchliligini tasdiqladi ($p < 0,05$). Tadqiqot ilgʻor xorijiy tajribalarni milliy taʼlim tizimiga moslashtirish taʼlim sifatini barqaror oshirishga xizmat qilishini ilmiy asoslaydi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ИНТЕГРАЦИИ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ПРОЦЕСС НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Дилафруз Абидовна Худайбердиева

*Доцент Международного университета химии в Ташкенте
Ташкент, Узбекистан*

Эъзога Абдумаликова

*Магистрант Международного университета химии в Ташкенте
daxudayberdiyeva@gmail.com
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: начальное образование, зарубежный опыт, педагогические условия, интеграция, компетентностный подход, интерактивные методы, дифференцированное обучение, учебная мотивация, самостоятельное мышление, цифровые технологии, качество образования, методическая модель.

Аннотация: В статье анализируются педагогические условия интеграции передового зарубежного опыта в процесс начального образования на основе системного подхода. Разработана и апробирована методическая модель, основанная на компетентностном, личностно-ориентированном и интегративном подходах. Результаты показали, что использование интерактивных методов, дифференцированных заданий и цифровых средств способствует повышению активности, мотивации, самостоятельного мышления и уровня усвоения знаний учащихся. В экспериментальной группе зафиксирована более высокая положительная

динамика по сравнению с контрольной. Математико-статистический анализ подтвердил достоверность различий ($p < 0,05$). Исследование обосновывает эффективность адаптации зарубежных практик к национальной системе образования.

Kirish. Ta'lim sifati jamiyatning intellektual salohiyati va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda bilish jarayonlari, o'quv motivatsiyasi, mantiqiy hamda ijodiy fikrlashning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur bosqichda yaratilgan pedagogik va didaktik sharoitlar keyingi ta'lim pog'onalarida o'quvchilarning muvaffaqiyatli o'qishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu bois boshlang'ich ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va ilg'or xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o'quvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlash orqali ta'lim sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan[1]. Mazkur huquqiy asos ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash va xalqaro tajribalarni o'rganish zaruratini taqozo etadi.

"Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da umumiy o'rta ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'qitishning innovatsion shakl va metodlarini keng joriy etish hamda o'quvchilarda mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan[2]. Shuningdek, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi ta'lim jarayonini raqamlashtirish, elektron ta'lim resurslarini keng qo'llash va individual yondashuvni kuchaytirish orqali ta'lim samaradorligini oshirishni nazarda tutadi[3]. Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlarda esa ta'lim natijalarini monitoring qilish, adaptiv o'qitish mexanizmlarini joriy etish hamda o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligi alohida ta'kidlangan[4].

Xalqaro miqyosda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida sifatli va inklyuziv ta'limni ta'minlash, barcha uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish hamda ta'lim jarayonida innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim omil sifatida e'tirof etilgan[5]. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarda esa ilg'or pedagogik yondashuvlar va raqamli ta'lim muhitlari o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, individual o'quv trayektoriyasini shakllantirish va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qilishi qayd etiladi[6].

Ilg'or xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Kanada kabi davlatlarda boshlang'ich ta'lim kompetensiyaviy yondashuv, muammoli o'qitish, loyiha

asosida ta'lim va raqamli texnologiyalar integratsiyasi asosida tashkil etilmoqda. Bu yondashuvlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish hamda o'quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi[7]. Shu bilan birga, adaptiv o'qitish tizimlari o'quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va differensial yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi[8].

Mazkur talablar boshlang'ich ta'lim jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni integratsiya qilishning pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy asosda aniqlash zaruratini belgilaydi. Chunki xorijiy modellarni bevosita ko'chirish emas, balki ularni milliy ta'lim tizimining maqsad va vazifalariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois pedagogik, psixologik va didaktik omillarni kompleks o'rganish hamda integrativ model ishlab chiqish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishning muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi (tahlili). Ilg'or xorijiy tajribalarni boshlang'ich ta'lim jarayoniga integratsiya qilish masalasi pedagogika, psixologiya va didaktika fanlari kesishmasida o'rganiladigan ko'p komponentli ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda ta'lim sifati faqat bilim hajmi bilan emas, balki o'quvchilarning kognitiv faolligi, mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyati va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalari bilan belgilanadi. Shu bois xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish jarayoni pedagogik shart-sharoitlar, psixologik omillar hamda didaktik ta'minot uyg'unligida tahlil qilinadi.

Pedagogik omillarni o'rganishda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, metodik tayyorgarligi va innovatsion yondashuvlarga ochiqligi muhim mezon sifatida qaraladi. V.P. Bospalko ta'lim jarayonini texnologik loyihalash orqali rejalashtirilgan natijaga erishish mumkinligini ta'kidlab, maqsad, mazmun, metod va vositalar o'rtasidagi tizimli bog'liqlik ta'lim samaradorligini belgilashini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv xorijiy tajribalarni integratsiya qilishda darsni natijaga yo'naltirilgan tarzda loyihalash zarurligini asoslaydi. N.A. Muslimov pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning bilish faolligini oshirishini va o'quv motivatsiyasini kuchaytirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi. R.X. Mavlonova esa interaktiv metodlar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Bu tadqiqotlar xorijiy tajribalarni samarali integratsiya qilish uchun o'qituvchining metodik kompetensiyasi hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatadi.

Psixologik omillar tahlilida L.S. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Unga ko'ra, o'quvchi mustaqil bajara oladigan vazifalar bilan pedagogik yordam orqali bajara oladigan vazifalar o'rtasidagi farq ta'limni individuallashtirish zarurligini belgilaydi. Xorijiy tajribalarda qo'llanilayotgan adaptiv o'qitish tizimlari aynan shu nazariyaga asoslanadi. J. Piaje boshlang'ich yoshdagi bolalarda tafakkurning konkret-amaliy bosqichi ustunligini ta'kidlab, vizual va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan topshiriqlar o'zlashtirish

samaradorligini oshirishini ko'rsatadi. Demak, xorijiy metodlarni integratsiya qilish jarayonida yosh psixologik xususiyatlarni hisobga olish zarur.

Didaktik omillar doirasida ta'lim mazmunining ilmiyligi, tizimliliigi va yoshga mosligi asosiy talab sifatida qaraladi. I.Ya. Lerner va M.N. Skatkin ta'lim mazmunini tanlashda o'quv materialining mantiqiy tuzilishi va amaliy yo'naltirilganligi o'quvchilarning ongli o'zlashtirishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Xorijiy tajribada keng qo'llanilayotgan kompetensiyaviy yondashuv ham aynan bilimni amaliy faoliyat bilan bog'lashga qaratilgan. Formativ baholash, refleksiya va o'z-o'zini baholash mexanizmlari esa o'quvchilarda mas'uliyat va mustaqillikni shakllantiradi.


Xalqaro tadqiqotlarda (Holmes, Luckin, Voogt va boshqalar) raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt asosidagi adaptiv tizimlar hamda interaktiv ta'lim platformalari boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Ular individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini monitoring qilish va differensial yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ilg'or xorijiy tajribalarni boshlang'ich ta'lim jarayoniga integratsiya qilish o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish hamda didaktik ta'minotning ilmiy asosda tashkil etilishi bilan bevosita bog'liqdir. Pedagogik, psixologik va didaktik omillar uyg'unlashgan holda qo'llanilgandagina xorijiy tajribalar milliy ta'lim tizimiga samarali moslashtiriladi va ta'lim sifati barqaror ravishda oshadi.

Mazkur tadqiqot ilg'or xorijiy tajribalarni boshlang'ich ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va ularning ta'lim sifatiga ta'sirini empirik jihatdan asoslashga qaratiladi. Metodologiya tizimli, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar uyg'unligida ishlab chiqilib, ta'lim jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida talqin etishga asoslanadi. Bunda xorijiy tajribalarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki milliy ta'lim mazmuni, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari hamda ijtimoiy-madaniy muhitni hisobga olgan holda moslashtirish tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Metodologik asos sifatida pedagogik texnologiyalar nazariyasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv va L.S. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi tanlanadi. Ushbu nazariy qarashlar integratsiya jarayonida o'quvchilarning individual imkoniyatlarini ochib berish, faoliyatga yo'naltirilgan o'qitish usullarini qo'llash hamda ta'lim natijalarining amaliy ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.


Tadqiqot uch bosqichda tashkil etiladi. Birinchi bosqich — diagnostik bosqich bo'lib, unda boshlang'ich ta'lim jarayonining mavjud holati aniqlanadi. O'quvchilarning bilim darajasi, o'quv motivatsiyasi va kognitiv faolligi maxsus testlar, kuzatish va so'rovnomalar orqali baholanadi. Shuningdek, o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligi va xorijiy tajribalarni qo'llashga bo'lgan munosabati o'rganiladi.



1-chizma. Boshlang'ich holatni diagnostika qilish modeli

Mazkur model tadqiqotning keyingi bosqichlari uchun muammoli nuqtalarni belgilash va integratsiya yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchi bosqich — shakllantiruvchi bosqich bo'lib, unda ilg'or xorijiy tajribalar elementlari tanlab olinadi va o'quv jarayoniga moslashtiriladi. Loyiha asosida o'qitish, muammoli vaziyatlar yaratish, STEAM elementlari, interaktiv metodlar va raqamli platformalar asosida topshiriqlar ishlab chiqiladi. Har bir dars maqsad–faoliyat–natija zanjiri asosida loyihalashtiriladi va o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga ustuvorlik beriladi.




2-chizma. Xorijiy tajribalarni integratsiya qilishning metodik modeli

Ushbu model integratsiya jarayonining bosqichma-bosqich amalga oshirilishini va natijaga yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Metodologiyada psixologik omillar alohida e'tiborga olinadi. Boshlang'ich yoshdagi bolalarda konkret-amaliy tafakkur ustun bo'lganligi sababli vizual materiallar, ko'rgazmali vositalar, didaktik o'yinlar va guruhli ishlash shakllari qo'llanadi. Bu o'quvchilarning yaqin rivojlanish zonasida samarali faoliyat yuritishiga sharoit yaratadi hamda bilish faolligini oshiradi.

Uchinchi bosqich — nazorat-tahlil bosqichi bo'lib, unda tajriba va nazorat guruhlarini natijalari qiyosiy tahlil qilinadi. O'zlashtirish darajasi, motivatsiya va mustaqil fikrlash ko'rsatkichlari foizli o'zgarishlar asosida baholanadi. Statistika qayta ishlash jarayonida o'rtacha qiymatlar va dinamik o'sish sur'atlari aniqlanadi.



3-chizma. Integratsiya samaradorligini baholash modeli

Mazkur model integratsiya natijalarini ilmiy asosda baholash imkonini beradi.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan metodologiya ilg‘or xorijiy tajribalarni boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish, pedagogik shart-sharoitlarni shakllantirish hamda ta‘lim sifatining 5–10 foiz oralig‘ida oshishini empirik jihatdan aniqlash imkonini beradi. Pedagogik, psixologik va didaktik omillar uyg‘unligi ta‘lim samaradorligini ta‘minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida ilg‘or xorijiy tajribalarni boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik shart-sharoitlari tajriba va nazorat guruhlarida o‘rganildi. Dastlabki bosqichda o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘quv motivatsiyasi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari hamda darsdagi faolligi aniqlab olindi. Shuningdek, xorijiy tajribalarni qo‘llashga tayyorgarlik darajasi va interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi baholandi.

1-jadval

Dastlabki diagnostika natijalari (% hisobida)

Ko‘rsatkichlar	Yuqori	O‘rta	Past
Bilim darajasi	33	47	20
O‘quv motivatsiyasi	45	35	20
Mustaqil fikrlash	30	50	20
Darsdagi faollik	41	39	20

Mazkur jadvaldan ko‘rinadiki, boshlang‘ich bosqichda o‘quvchilarning asosiy qismi o‘rta darajada. Bilim darajasining yuqori ko‘rsatkichi 33 % ni tashkil etgani, ta‘lim jarayonida innovatsion va faol metodlar yetarlicha qo‘llanilmayotganini ko‘rsatadi. Mustaqil fikrlashning 30 % atrofida bo‘lishi esa an‘anaviy yondashuv ustunligini bildiradi. Darsdagi faollikning 41 % ni tashkil etishi o‘quvchilarning faol ishtirokini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tajriba bosqichida loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlar, guruhli ishlash, differensial topshiriqlar hamda raqamli didaktik vositalar qo‘llanildi. Nazorat guruhida esa an‘anaviy metodlar davom ettirildi.

2-jadval

Darsdagi faollik ko'rsatkichlarining o'zgarishi (%)

Guruh	Dastlab	Yakuniy	O'sish
Tajriba guruhi	41	50	+9
Nazorat guruhi	40	45	+5

Tajriba guruhida darsdagi faollik 9 % ga oshdi. Bu xorijiy tajribalar asosida qo'llangan interaktiv metodlar va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bilan izohlanadi. O'quvchilar savol-javob, munozara va amaliy topshiriqlarda faolroq ishtirok eta boshladi. Nazorat guruhida esa o'sish 5 % bilan cheklanib, bu tabiiy rivojlanish jarayoniga bog'liq ekanligi aniqlandi.

3-jadval

Mustaqil fikrlash ko'rsatkichlari (%)

Guruh	Yuqori	O'rta	Past
Tajriba (dastlab)	30	50	20
Tajriba (yakuniy)	39	45	16
Nazorat (yakuniy)	34	47	19

Tajriba guruhida yuqori darajadagi mustaqil fikrlash 30 % dan 39 % ga oshdi, ya'ni 9 % o'sish kuzatildi. Past ko'rsatkich 20 % dan 16 % ga kamaydi. Bu differensial va muammoli topshiriqlarning samarali qo'llanilganini ko'rsatadi. Nazorat guruhida o'zgarish minimal bo'lib, yuqori daraja 34 % ni tashkil etdi.

4-jadval

O'quv motivatsiyasi darajasi (%)

Guruh	Yuqori	O'rta	Past
Tajriba (dastlab)	45	35	20
Tajriba (yakuniy)	54	30	16
Nazorat (yakuniy)	48	34	18

Tajriba guruhida yuqori motivatsiya 45 % dan 54 % ga oshdi. O'yin elementlari, rag'batlantirish va ijobiy psixologik muhit yaratilishi o'quvchilarning darsga qiziqishini kuchaytirdi. Past motivatsiya 20 % dan 16 % ga kamaydi. Nazorat guruhida o'sish 3 % atrofida bo'ldi.

5-jadval

Bilimlarni o'zlashtirish natijalari (o'rtacha ball)

Guruh	Dastlab	Yakuniy	O'sish (%)
Tajriba guruhi	3.4	3.9	+12

Nazorat guruhi	3.4	3.7	+9
----------------	-----	-----	----

Tajriba guruhida o'zlashtirish 3.4 ball dan 3.9 ball ga oshdi, bu 12 % o'sishni anglatadi. Ko'rgazmali materiallar, tizimli baholash va faol o'qitish metodlari natijani yaxshilashga xizmat qildi. Nazorat guruhida o'sish 9 % ni tashkil etdi.

Umumiy natijalar

Tajriba guruhida:

darsdagi faollik 9 % ga,

mustaqil fikrlash 9 % ga,

motivatsiya 9 % ga,

o'zlashtirish darajasi 12 % ga oshdi.

Nazorat guruhida o'sish 5–9 % oralig'ida bo'lib, bu tabiiy rivojlanish bilan izohlanadi. Matematik-statistik tahlil farqlarning ishonchliligini tasdiqladi ($p < 0,05$).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:

Ilg'or xorijiy tajribalarni integratsiya qilish o'quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlashini sezilarli darajada oshiradi.

Pedagogik shart-sharoitlar — interaktiv metodlar, ijobiy psixologik muhit va differensial yondashuv — ta'lim sifatini barqaror yaxshilaydi.

Integratsiya jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilganda natijalar yanada samarali bo'ladi.

Pedagogik, psixologik va didaktik omillar uyg'unligi ta'lim sifatining mo'ʻtadil, ammo barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, ilg'or xorijiy tajribalarni boshlang'ich ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy asoslangan holda samarali ekanligi tajriba natijalari bilan tasdiqlandi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot "Ilg'or xorijiy tajribalarni boshlang'ich ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik shart-sharoitlari" mavzusida olib borilib, ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik, psixologik va didaktik omillar uyg'unligi asosida ishlab chiqilgan metodik model tajriba-sinovdan o'tkazildi va uning natijalari nazorat guruhi bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Olib borilgan diagnostik tahlillar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich bosqichda o'quvchilarning aksariyati bilim darajasi, mustaqil fikrlash va motivatsiya ko'rsatkichlari bo'yicha o'rta darajada bo'lgan. Bu esa ta'lim jarayonida interaktiv metodlar va ilg'or tajribalar yetarlicha tizimli qo'llanilmayotganini ko'rsatdi.

Tajriba bosqichida loyiha asosida o'qitish, muammoli vaziyatlar, differensial topshiriqlar, guruhli ishlash texnologiyalari hamda raqamli didaktik vositalar joriy etildi. Natijalar quyidagilarni ko'rsatdi:

- darsdagi faollik sezilarli darajada oshdi;
- mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlandi;
- o'quv motivatsiyasi barqaror o'sish ko'rsatdi;
- bilimlarni o'zlashtirish sifati yaxshilandi.

Tajriba guruhida barcha ko'rsatkichlar nazorat guruhiga nisbatan yuqori o'sish sur'atini namoyon etdi. Matematik-statistik tahlil natijalari farqlarning ishonchligini tasdiqladi ($p < 0,05$). Bu esa ilg'or xorijiy tajribalarni boshlang'ich ta'lim jarayoniga integratsiya qilish pedagogik jihatdan asosli va samarali ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Ilg'or xorijiy tajribalarni milliy ta'lim mazmuniga moslashtirish zaruriy pedagogik shart-sharoitlarni yaratgandagina yuqori natija beradi.

2. Interaktiv va faol metodlar o'quvchilarning faolligi hamda mustaqil fikrlashini bosqichma-bosqich rivojlantiradi.

3. Ijobiy psixologik muhit va rag'batlantirish mexanizmlari o'quv motivatsiyasini barqaror oshiradi.

4. Ko'rgazmali, differensial va kompetensiyaviy yo'naltirilgan didaktik materiallar bilimlarni chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi.

5. Pedagogik, psixologik va didaktik omillarni kompleks qo'llash ta'lim sifatining mo'tadil, ammo barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ilg'or xorijiy tajribalarni boshlang'ich ta'lim jarayoniga integratsiya qilish izchil, tizimli va ilmiy asoslangan holda amalga oshirilganda ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Ushbu tadqiqot ishlanmalari boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar hamda pedagogika yo'nalishida ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — O'RQ-637. — Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". — Toshkent, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. — Toshkent, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son Farmoni "Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". — Toshkent, 2023.
5. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. — New York: United Nations, 2015. — 41 p.

6. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Guidance for Policy-makers. — Paris: UNESCO Publishing, 2021. — 142 p.
7. Voogt J., Knezek G. International Handbook of Information Technology in Primary and Secondary Education. — New York: Springer, 2020. — 1232 p.; Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. — Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. — 136 p.
8. Luckin R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. — London: UCL IOE Press, 2018. — 256 p.
9. Khudayberdiyeva D. A., Abduqodir o'g'li X. J. Ta'lim turlari va ularning amalga oshirilish mexanizmlari // Modern Scientific Research: Achievements, Innovations and Development Prospects. — Germany, 2023. — Vol. 9. — No. 1.
10. Аббасов Б. А. Особенности инновационных технологий в образовании // Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. — 2022. — Т. 3. — № 3. — С. 45–52.
11. Asatillaevich A. B. Complex aspects of the organization of the educational process in the context of the coronavirus pandemic. — 2022.
12. Khudayberdiyeva D., Raupova D. Consistency of reforms in education // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. — 2020. — Vol. 10. — No. 11. — P. 1671–1680.